

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA HUNARMANDCHILIKNI
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

¹⁾Musagaliev Ajiniyaz Jumagulovich

Nukus Innovatsion instituti Xalqaro hamkorlik bo'limi boshligi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

²⁾Madaminova Sanobar Askarovna

Nukus Innovatsion instituti

“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasida assistent o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda hunarmandchilik sohasining xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'рни va iqtisodiy ahamiyati xususida yoritilgan. Xususan, hunarmandchilik subyektlariga yaratilayotgan amaliy sharoitlar va imtiyozlar, keyingi yillarda respublikamizda sohani qo'llab quvvatlash bo'yicha qabul qilingan farmon va qarorlarda belgilangan ustuvor vazifalarning mazmun mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy hunarmandchilik, sohani rivojlantirish, hunarmandchilik subyektlari, soliq imtiyozlari, turizm, hunarmandchilik mahsulotlari, eksport.

Аннотация: В статье описывается роль и экономическое значение сферы ремесленничества в развитии частного предпринимательства в Узбекистане. В частности, освещены практические условия и льготы, созданные для ремесленных субъектов, сущность приоритетных задач, определенных в принятых в последние годы указах и решениях по поддержке промышленности в республике.

Ключевые слова: национальное ремесленничество, развитие сферы, налоговые льготы, туризм, ремесленная продукция, экспорт.

Abstract: The article describes the role and economic importance of the craft sector in the development of private entrepreneurship in Uzbekistan. In particular, the practical conditions and benefits created for craft subjects, the essence of the priority tasks identified in the decrees and decisions adopted in recent years to support industry in the republic, are highlighted.

Key words: national handicrafts, development of the sphere, tax incentives, tourism, handicraft products, export.

Ma'lumki hunarmandchilik — milliy-an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan sanoat turi; shuningdek mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi bo'lib hisoblanadi. Yirik sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalari keyin ham saqlangan. Hozirgi vaqtda mazkur soha iqtisodiy

rivojlanayotgan mamlakatlarning xalq xo'jaligida muhim o'rin egallaydi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, hunarmandchilik bilan ota-bobolarimiz azaldan shug'ullanib kelishgan.

O'zbekiston Respublikasida hunarmandlar uyushmasi mavjud bo'lib, unga a'zo bo'lgan ustalar davlatimiz tomonidan berilgan imtiyozlarga ega bo'lishadi. Buning uchun yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tishi kerak. Mamlakatimizda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, ushbu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish bilan birgalikda, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni ish bilan ta'minlash maqsadida bir qancha yengilliklar va imtiyozlar berilmoqda. Hunarmandchilik sohasining rivojlanishi shuningdek turizm sohasining rivojlanishiga ham ijoboy ta'sir qiladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Hukumati tomonidan ham ko'pgina imkoniyatlar yaratilib berilmoqda, bunga misol sifatida keying yillarda qabul qilingan quyidagi farmon va qarorlarga nazar tashlasak. Xususan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2017 yildagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5242-son farmoniga muvofiq quyidagilar respublikamizda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan:

birinchidan, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolar va oilalar, ayniqsa yangitdan o'z faoliyatini boshlagan hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, "Usta-shogird" maktablari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, va shu asosda yangi ish o'rinlari tashkil etish;

ikkinchidan, hunarmandchilik subyektlariga davlat ro'yxatidan o'tishda ko'maklashish, ularga yer maydonlari va binolar ajratish, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish, ularni asbob-uskunalar, jihozlar, xomashyo va materiallar bilan uzluksiz ta'minlash, ularga imtiyozli kreditlar berish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

uchinchidan, xalq hunarmandchiligi va ijodiy an'analari keng rivojlangan shahar va tumanlarda hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari tashkil etish, hunarmandchilikning noyob turlarini qayta tiklash va yanada rivojlantirish, iste'molchilarga hunarmandchilik mahsulotlari yetkazib berish uchun bozor infratuzilmasini shakllantirish;

to'rtinchidan, hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilishni rag'batlantirish, xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan ko'rgazma va yarmarkalarda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini taqdimot qilishga ko'maklashish [1].

Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-4539-son qarorga muvofiq hunarmandlarning xalq amaliy san'ati milliy katalogi yaratilib, faxriy va xalqaro ko'rgazma hamda tanlovlarda g'olib bo'lgan 340 nafar ustalar ushbu katalogdan o'rin oldi. Shuningdek, 1,5 mingga yaqin hunarmandlar turizm reyestriga kiritilib, ushbu soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda [2].

Ta'kidlash joizki, Milliy katalog va Reyestriga kiritilgan hunarmandlar kalendar yili davomida hunarmandchilik mahsulotlarini (ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan tushumi 100 mln so'mdan oshgan, biroq 1 mlrd so'mdan ko'p bo'lmagan miqdori bo'yicha aylanmadan olinadigan soliq stavkasini 50 foizga kamaytirilgan miqdorida to'lab kelmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 yildagi "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-son qarorining amaliy natijasi bo'yicha quyidagi muhim ma'lumotlarni keltirib o'tsak bo'ladi. Ya'ni, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida so'nggi besh yilda mamlakatimizdagi usta hunarmandlar soni 7 barobarga, shogirdlar 9 barobarga ko'payib, sohada band bo'lganlar soni 230 ming nafarga yetgan [3].

Yana bir dolzarb huquqiy me'yoriy hujjat mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.06.2023 yildagi "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-91-son farmoniga muvofiq 2023-yil 1-iyuldan boshlab hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilishda xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari sifatida jo'natish xarajatlarining 50 foizi, biroq mahsulot eksport qiymatining (jo'natish xarajatsiz) 50 foizidan ortiq bo'lmagan qismi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan qoplab berilishi va tovar belgilarini milliy ro'yxatdan o'tkazish bepul amalga oshirilishi ko'rsatilgan [4].

Demak aytishimiz mumkinki, bugungi kunda aholini ish bilan band qilish va bandligini ta'minlash dolzarb masala sanaladi. Bu masalani yechish borasida hukumat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarning ijrosi natijasida amalga oshirilgan say-harakatlarni natijasi beqiyos. Shu jumladan, banklar tomonidan hunarmandchilik subyektlari uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar, soliq to'lovlaridan ozod etilganligi, ijtimoiy sug'urtaga ega bo'lishi, davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining 50% miqdorida belgilanishi, shogirdlarga mustaqil faoliyatini boshlashi uchun zarur asbob-uskuna va jihozlarni sotib olishi uchun subsidiyalar ajratilishi,

kommunal to'lovlarini aholi uchun belgilangan tariflarda to'lash mumkinciliklarini misol qilsak bo'ladi.

Fikrimizcha, mazkur chora tadbirlar samarasi o'laroq "yalpi ichki mahsulotga nisbatan xizmatlar ko'rsatishning o'sib borish tendensiyasi kuzatila boshlandi, buning natijasida esa tarmoqning mamlakatimiz hududlari iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasini oshiradi. Bu holat, bizningcha, respublikaning yirik sanoat tarmoqlari: savdo va umumiy ovqatlanish, transport va aloqa, kommunal, moliya va boshqalarning hissasi bilan ham bog'liq. Eng muhimi, avvallari asosan davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar asta-sekin xususiy bozor xarakteriga ega bo'lmoqda" [5].

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar va ta'kidlab o'tilgan ilmiy nazariy fikrlarimizdan kelib chiqib xulosa qilib aytganimizda mamlakatimizda hunarmandchilikni rivojlantirish orqali aholining bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish imkoniyatlari yaratilishi mumkin deb hisoblaymiz. Shuningdek, hunarmandchilik mahsulotlarining eksportini ko'paytirish orqali mamlakatimizni horijga tanitishni faollashtirish barobarida esa hududimizga chet el sayyohlarida qiziqish uyg'onishi, bu esa o'z navbatida, turizm sohasining rivojlanishiga muayyan xissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2017 yilgi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5242-son farmoni. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2019 yilgi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4539-son qarori. <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 yildagi "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-son qarori. <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.06.2023 yildagi "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-91-son farmoni. <https://lex.uz>
5. Musagaliev A.J., and etc. General Analysis of Services in the Economic Development of Regions in Uzbekistan / Asian Journal of Advances in Research. Volume 17. Issue 4. 2022. - Pages: 221-226
6. Nabijonov Otabek Ganiyevich (2021). IQTISODIYOTDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Scientific progress, 1 (3), 136-139.